



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**



**SURXONDARYO VILOYATI XALQ TA'LIMI
XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIIY MARKAZI**

**ZAMONAVIY JAMIYATDA FAN VA
TA'LIMNING RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA
YECHIMLAR**

**XALQARO ONLAYN ILMIIY-AMALIIY
KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TERMIZ-2021

МУНДАРИЖА

ЯЛПИ ЙИҒИЛИШ

Ғ.Б.Шоумаров. Проблемы и решения развития науки и образования в Узбекистане.....	5
У.Д.Қодиров, А.Э.Турахонов. Педагогларда ўзгаришларга мослашувчанлик шаклланишининг омиллари.....	10
Е.В.Мороз. Инновационные методы обучения в преподавании истории политических и правовых учений.....	16
I. Sekret. Students' evaluation of teaching: international practices from the students' perspectives.....	22
М.А.Абрамова. Социокультурный факторы цифровизации образования.....	27
А.Kurudirek, Н.Kurudirek. On axiom from non-euclidean geometric perspective.....	30
Ф.Фаттоев, Ж.Разақов. STEAM технологияси – келажак таълими.....	34

1-ШЎҒБА

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

М.Юнусов. Раҳбарнинг ОАВ билан ишлаш маданияти.....	37
Д.Р.Рахматуллаева. Малака ошириш жараёнида замонавий таълим технологияларини қўллаш.....	42
Д.Б.Атажанова. Рақамли технологиялар шароитида ўқувчиларни масофавий касбга йўналтириш.....	45
З.Г.Каримова. Таълимни ахборотлаштиришда бўлажак касб таълими ўқитувчиларини тайёрлаш услулари.....	48
Ж.М.Қаршиев. Сунъий интеллект ва унинг таълимдаги ўрни.....	52
Н.Н.Худойбердиев, Д.Х.Очилдиева. Умумтаълим мактаб ўқитувчиларининг ахборот компетентлигини такомиллаштиришда хорижий тажрибалар.....	55
Д.И.Хўжамбердиева. Таълим тизимида рақамли технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти.....	58
Ж.Х.Разақов. Умумтаълим мактабларида рақамли технологиялар ва масофавий таълимдан фойдаланиш масалалари.....	61
Н.М.Зиёдуллоев. Мактаб кимё таълимида рақамли технологиялардан фойдаланишнинг амалий аҳамияти.....	65
Ҳ.С.Гулматова. Ўқувчи-ёшлар тафаккурини ривожлантиришда ахборот-коммуникация ва инновацион технологиялар.....	69
З.З.Бакаев, Т.О.Авезов. Таълим тизимида рақамли технологияларни жорий этиш: муаммо ва ечимлар.....	71
Г.Э.Эргашева. Малака ошириш жараёнида замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишни ўрганишнинг аҳамияти.....	73

технологиялари.....	324
А.А.Гулова. Навоий наздидаги комил инсон.....	327
Д.Х.Гадоев. Масжидлар қошидаги ибтидоий мактаблар фаолияти.....	332
Б.Х.Каримова. Меҳрибонлик уйларининг 1-синф тарбияланувчиларида миллий ғурурни ҳадислардан фойдаланиб шакллантириш имкониятлари.....	336
У.Мамуров. Маҳмуд Торобийнинг миллий озодлик учун курашлари тарихи ҳамда ёшларда ватанпарварлик фазилатини шакллантиришда маънавият ва маърифат тушунчаларининг аҳамияти.....	344
Х.А.Сафоев. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг шакл ва методлари.....	348
З.Т.Холматова. Таълим жараёнида гендерли ёндашув давр талаби.....	351
М.Умарова. Амир Шохмурод даврида (1785-1800) Бухоро Амирлигининг таълим тизимидаги ислоҳотлар.....	357
З.М.Амиркулова. Тарихий шахслар образида ватанпарварлик хислатларининг акс этиши.....	358
У.А.Бойзақова. Умумий ўрта таълим мактабида ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштиришда раҳбар-ҳодимларнинг ўрни.....	360
Д.Х.Қодиров. Ғаззолийнинг ёшларда гўзал ахлоқни тарбиялаш тўғрисидаги қарашлари.....	364
Ж.Ж.Рамазонов. Замонавий таълим жараёнида талаба-ёшларда ўзини ўзи идора қилишнинг ижтимоий-психологик механизмлари.....	367
Э.Т.Раҳматов. Таълим фалсафасида нақшбандия таълимотидаги рашҳалардан фойдаланишнинг аҳамияти.....	373
Ж.А.Юлдашев. Электрон манбаларнинг тарихий тадқиқотлардаги аҳамияти.....	377
И.И.Розиқов. Инсонпарварлик тамойилига асосланган жамоатчилик таъсири жазо назариясининг амалиётга татбиқ этилиши асослари ва муаммолари.....	381
З.А.Турахонова. Ижтимоий фанларни ўқитишда музейларнинг илмий-тадқиқотчилик фаолияти хусусида.....	385
С.А.Жўрақулова. Таълим-тарбия жараёнида маърифат ва китобхонликнинг ўрни.....	389
О.Бердимуродов. Тарих фанини ўқитишда ҳамкорликда ўқитиш технологиялари.....	393
С. Холиёров. Тарих фанини ўқитишда медиатаълимнинг ўрни ва муҳим жиҳатлари.....	397
Б.Холмўминов. Тарих дарсларини замонавий ёндашувлар асосида ташкил қилиш йўллари.....	403
М.С.Шадиметова. Тарих дарсларида ўқувчиларни мустақил фикрлаш қobiliятини ривожлантириш йўллари.....	407
С.Эшбоев. Тарих дарсларида ўқувчилар ижодкорлигини оширишда педагогик технологиялардан фойдаланиш йўллари.....	412

2. Узоқов А.М. Олий таълим муассасалари талабаларининг ватанпарварлик даражасини ривожлантириш. Узлуксиз таълим. 2019, №1,- Б.14.

3. Кулюткин Ю.Н. ва Г.С.Сухобская. Методы исследования педагогической деятельности. -М.: педагогика, 1987.-С.90.

4. Ахмедов Б. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Т.: Чўлпон нашриёти. 1994 й.

YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING SHAKL VA METODLARI

*Safojev Husen Aminovich,
Buxoro davlat universiteti
Harbiy ta'lim fakulteti*

Annotatsiya: Maqolada talaba-yoshlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga doir faol munosabatni shakllantirishga oid muammo va yechimlar yoritilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xalq tinchligi, etnik, madaniy, barqarorlik, vatanparvarlik, totuvlik, xavfsizlik, xalqaro, ta'lim-tarbiya, tarixiy tajribalar.

Аннотация: В статье описаны проблемы и пути решения политических, социально-экономических изменений, происходящих в нашей стране, формирование активного отношения студентов к обеспечению стабильности в обществе. В статье также анализируются актуальные задачи в области воспитания молодежи в духе военного патриотизма.

Ключевые слова: народный мир, этнический, культурный, стабильность, патриотизм, целостность, безопасность, международный, образовательный, исторический опыт.

Annotation: The article describes the problems and ways of solving the political, socio-economic changes taking place in our country, the formation of an active attitude of students to ensuring stability in society. The article also analyzes the urgent tasks in the field of educating young people in the spirit of military patriotism.

Key words: People's peace, ethnic, cultural, stability, patriotism, harmony, ideological, security, international, educational, historical experiences.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 28-iyulda qabul qilingan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" PQ-3160 qarorida "Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda.

Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xususan, oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shilib qolish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e'tiborni talab etmoqda⁶⁰, deb ta'kidlaydi.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun talaba-yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini ko'tarish, ularda harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini yanada rivojlantirish lozim. Buning uchun oliy ta'lim muassasalari, mahallalar va oilalar hamkorligida turli xil tadbirlar tashkil etib turish maqsadga muvofiqdir.

Jumladan:

- oliy ta'lim muassasalari, mahallalar va mehnat jamoalarida talaba-yoshlar o'rtasida ularni g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir", "Shu Vatan barchamizniki", "Vatanimizni asrab-avaylash barchamizning fuqarolik burchimizdir", "Vatanni sevmok iymondandir", "Vatanparvarlik – yuksak g'oyaviy tuyg'u" kabi mavzularda ma'naviy targ'ibot tadbirlar va uchrashuvlarni muntazam tashkil etib turish;

- "Vatan xavfsizligi – xalq tinchligi va osoyishtaligining garovidir", "O'zbekistonda dinlararo va millatlararo totuvlik – barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash asosi", "Yuksak harbiy vatanparvarlik – yurtimizni asrashning muhim omili", "Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik – jamiyatni isloh qilishning asosi", "Etnik, madaniy va diniy bag'rikenglik – O'zbekistonning ma'naviy yuksalish manbai" mavzularida jamiyat a'zolari orasida, ayniqsa, talaba-yoshlar o'rtasida ilmiy-amaliy seminarlar, davra suhbatlari o'tkazib borish;

- talaba-yoshlarda mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga doir faol munosabatni shakllantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari, yoshlar tashkilotlarida harbiy chaqiriqqacha bo'lgan talaba-yoshlar orasida "Jamiyat barqarorligi – O'zbekistonni yanada rivojlantirish kafolati", "Mening Vatanim – mening oilam" mavzularida munozaralar, uchrashuvlar o'tkazish;

- mahallalar va oliy ta'lim muassasalarida siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, urush va mehnat faxriylari, ijodkor ziyolilar hamda talaba-yoshlar faollari ishtirokida "Men Vatanimni himoya qilaman", "O'z uyingni o'zing asra", "Tinchlik va osoyishtalik uchun kurashmoq – har bir yoshning burchidir" mavzularida turkum anjumanlar va uchrashuvlar o'tkazish;

- yurtimizda demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy islohotlarni amalga oshirishda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. PQ-3160, 2017-yil 28-iyul. www.president.uz.

ahamiyati, bu borada talaba-yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yorituvchi turkum o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ommabop nashrlar, bukletlar tayyorlash va chop etish kabilar.

Bugungi kunda talaba-yoshlar harbiy vatanparvarlik tarbiyasining turli shakllarini maqsadli qo'llash ta'lim jarayonida kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Buning uchun oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida harbiy vatanparvarlik tarbiyasining sinovdan o'tgan qator shakl va metodlaridan unumli foydalanish zarur.

Ular quyidagilar:

- harbiy vatanparvarlik mavzusidagi ma'ruzalar, suhbatlar, hikoyalar, mavzulashtirilgan kechalar, turli uchrashuvlar o'tkazish;
- harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yo'nalishida sayohatlar, jasorat darslari, harbiy-sport musobaqalari va intellektual o'yinlar tashkil etish;
- to'plangan xalqaro va milliy ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish;
- jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganish va boshqalar.

Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid bu kabi shakllar va metodlarni keng ko'lamda olib borish, ularning turli psixologik qatlamlari, yosh guruhlari o'rtasidaga tafovutlar va farqlanishlarni bartaraf qiladi. Buning natijasida talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissi samarali ta'minlanadi.

Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalarida harbiy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri, talaba-yoshlar ongi va qalbida Vatan himoyachilari shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishi uchun amaliy-hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali ularni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishlariga imkon yaratishdan iborat.

Shu nuqtayi nazaridan, oliy ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayonida talabalarga harbiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha bilim berish, balki egallagan bilim va malakalarini amaliyotga tatbiq etish, ulardan kelajakda milliy armiyamiz safida xizmat qilish davrida foydalana olish kompetensiyalarini qo'llay olishga o'rgatish ham oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Toshkent, O'zbekiston, 1992-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. PQ-3160, 2017-yil 28-iyul. www.president.uz.
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida PF-4947-son 07.02.2017.
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1qism. Pedagogika nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik./ M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. "Iqtisod-moliya", 2007.-380 b.